

ҚАРАҚАЛПАҚСТАН РЕСПУБЛИКАСЫ  
ДЕН САҰЛЫҚТЫ САҚЛАҰ МИНИСТРИ

Ш.Кадиримбетоваға

Мағлыұмат хәм орынлаұ ушын қабыл  
қылынсин

Орынлаұ муддети 25.05.2023 жыл

  
М.И.КУРБАНОВ

№12/

«19» Май 2023-жыл

Такыятас районы хәкимлиги



*Ш.Кадиримбетова*





**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATINING  
FAN, TA'LIM VA SOG'LIQNI SAQLASH MASALALARI QO'MITASI**

2023-yil 8-may

09-12/1027-sonli

**Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Jo'qorg'i  
Kengesi, xalq deputatlari  
viloyatlar va Toshkent shahar  
Kengashlariga**

Qo'mitaning 2023-yil 27-aprelda qabul qilingan "Toshkent viloyatida oilaviy shifokorlik punktlari, oilaviy poliklinika va mahalla tibbiyot punktlarida aholiga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish holatini o'rganish natijalari to'g'risida"gi (165-sonli) qarori ilovaga muvofiq ma'lumot uchun yuborilmoqda.

*Ilova 6 varaqda.*

**Qo'mita raisi**

**O. Iminov**

Jirochi: O. Kamalov,  
Tel.: 78-238-27-15  
E-xat: [senat15@exar.uz](mailto:senat15@exar.uz)



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATINING  
FAN, TA'LIM VA SOG'LIQNI SAQLASH MASALALARI QO'MITASI**

2023-yil 27-aprel

165-sonli

Toshkent sh.

**Toshkent viloyatida oilaviy shifokorlik punktlari, oilaviy poliklinika va mahalla tibbiyot punktlarida aholiga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish holatini o'rganish natijalari to'g'risida**

"Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (bundan buyon matnda Qonun deb yuritiladi) ijrosi, shuningdek oilaviy shifokorlik punktlari, oilaviy poliklinika va mahalla tibbiyot punktlarida aholiga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish holatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish borasida Toshkent viloyatida olib borilgan ishlar holati o'rganildi.

Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida **1061 ta** oilaviy shifokorlik punkti, **1059 ta** oilaviy poliklinika va **208 ta** ko'p tarmoqli markaziy poliklinika faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Toshkent viloyatida **2 mln 992 ming 600 nafar** (1 mln 490 ming 800 nafar ayollar, 1 mln 501 ming 800 nafar erkak) doimiy yashayotgan aholiga **22 ta** ko'p tarmoqli markaziy poliklinika, **91 ta** oilaviy poliklinika, **67 ta** oilaviy shifokorlik punkti va **107 ta** mahalla tibbiyot punkti xizmat ko'rsatib kelmoqda.

**Toshkent viloyatida** birlamchi tibbiyot muassasalarida **2 206 nafar** shifokor, **4 606 nafar** o'rta tibbiyot xodimi hamda **1449 nafar** kichik tibbiyot xodimi faoliyat olib bormoqda.

Aholiga qulaylik yaratish, birlamchi tibbiyot muassasalarini raqamlashtirish maqsadida **Toshkent viloyatidagi** barcha tibbiyot muassasalari (*oilaviy poliklinikalar, oilaviy shifokorlik punktlari*) **internet tarmog'iga ulangan**.

**Toshkent viloyatida** xatlovdan o'tkazilgan aholining 892 709 nafari 4 ta xavf guruhiga kiritilgan.

Xatlov natijasiga ko'ra tayanch guruhi 459 808 nafar (51,5 %), xavf darajasi past bo'lgan guruhi 257 842 nafar (28,9 %), xavf darajasi o'rtacha bo'lgan guruhi 136 075 nafar (15,2 %) va xavf darajasi yuqori bo'lgan guruhi 38 984 nafari (4,4 %) tashkil etadi.



**Вазирлик тизимидаги барча Республика  
даволаш-профилактика муассасалари  
раҳбарлари ва  
туман/шаҳар тиббиёт бирлашмалари  
бошлиқларига**

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Сенатининг фан, таълим ва соғлиқни сақлаш қўмитасининг “Тошкент вилоятида оилавий шифокорлик пунктлари, оилавий поликлиника ва маҳалла тиббий пунктларида аҳолига бирламчи тиббий ёрдам кўрсатиш ҳолатини ўрганиш натижалари тўғрисида”ги 2023 йил 27-апрелдаги 165-сонли қарори ижросини таъминлаш мақсадида, **кўрсатма хат**:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Сенатининг фан, таълим ва соғлиқни сақлаш қўмитасининг “Тошкент вилоятида оилавий шифокорлик пунктлари, оилавий поликлиника ва маҳалла тиббий пунктларида аҳолига бирламчи тиббий ёрдам кўрсатиш ҳолатини ўрганиш натижалари тўғрисида”ги 2023 йил 27-апрелдаги 165-сонли қарори маълумот ва ижро учун қабул қилинсин.

2. Вазирнинг биринчи ўринбосори Қ.Ж.Камалов, вазир ўринбосори Т.Қ.Сарбаев, кадрлар бўлими бошлиғи П.Пирниязов ва дДПЁТваТС бўлими бошлиғи О.Раджабов ва барча туман/шаҳар тиббиёт бирлашмалари бошлиқларига:

янги ташкил этилган маҳалла тиббиёт пунктларини оилавий поликлиника ёки оилавий шифокорлик пунктлари тузилмасига киритиш бўйича норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилиш юзасидан таклифлар киритиш;

тиббиёт муассасаларида аҳолига қулай тиббий ёрдам кўрсатиш мақсадида рақамлаштиришга хусусий ИТ-корхоналарни ҳам жалб қилиш чораларини кўриш;

туман (шаҳар) тиббиёт бирлашмалари томонидан ҳудудларда вақант бўлган шифокорлар ўрнини тўлдириш мақсадида тиббиёт олий таълим муассасалари битирувчиларини шартнома асосида жалб қилиш чораларини кўрилиш;

Аҳолига бирламчи тиббий-санитария ёрдами кўрсатишнинг сифати ва самарадорлигини ошириш мақсадида такомиллаштирилган тиббий профилактика ва патронаж хизмати фаолиятини доимий равишда мониторинг қилиб бориш ҳамда мавжуд муаммоларни бартараф этиш бўйича маҳаллий ҳокимият органлари билан ҳамкорликни кучайтириш топшириқлари берилганлиги маълумот ва ижро учун қабул қилинсин.

Шунингдек, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, туман ва шаҳар ҳокимликларига:

ҳудудларда янги ташкил этилган маҳалла тиббиёт пунктларини электр энергияси, табиий газ, ичимлик суви билан таъминлаш, иситиш тизими ҳамда канализация тармоқларининг узлуксиз ишлашини доимий назоратга олиш;

туман (шаҳар) ҳокимликлари томонидан бирламчи тиббиёт муассасаларида ИТ-инфратузилмасини ривожлантириш мақсадида маҳаллий бюджетларига қўшимча тушумлар ҳисобидан компьютер техникалари билан босқичма-босқич таъминлаш, умумтаълим мактабларида мавжуд тиббиёт хоналарини жорий таъмирлаш, зарур мебель жиҳозлари билан ҳамда биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш учун зарур дори-дармон билан

таъминлаш учун маблағлар ажратиш юзасидан халқ депутатлари туман (шаҳар) Кенгашларига таклиф киритиш амалиётидан кенг фойдаланиши;

2023-йилнинг 1-сентябрига қадар маҳаллий бюджет маблағлари ҳисобидан “тиббиёт бригадалари”ни махсус компьютер-планшетлари ва мобил тиббиёт- диагностика воситалари билан тўлиқ таъминлаш;

2023-йилги Инвестиция дастури доирасида ҳамда маҳаллий бюджет маблағлари ҳисобидан, шунингдек янги ташкил этилиши режалаштирилган бирламчи тиббиёт муассасаларида амалга оширилаётган қурилиш-таъмирлаш ишларини белгиланган муддатларда яқунлаш топшириқлари берилганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

3. Вазирлик тизимидаги барча Республика даволаш-профилактика муассасалари ва туман/шаҳар тиббиёт бирлашмалари бошлиқларига:

янги тиббий профилактика ва патронаж тизимини намунали ташкил этилиши белгиланган ҳудудларда “тиббиёт бригадалари” томонидан ўзларига бириктирилган ҳудудларда юқори хавф гуруҳига кирган фуқароларга индивидуал патронаж хизматини кўрсатиш, уларга оилавий шифокорлар томонидан туман (шаҳар) кўп тармоқли марказий поликлиникалари ва вилоят шифохоналарига **бепул тиббий ёрдам кўрсатилиши учун йўлланмалар берилишини қатъий назоратга олиш;**

“тиббиёт бригадалари” томонидан мустақил равишда тиббиёт муассасасига кела олмайдиган беморларни доимий кузатувга олиш ҳамда уйига борган ҳолда уларга тиббий хизмат кўрсатиш ва индивидуал патронажни амалга оширишда, кўп тармоқли марказий поликлиника, оилавий поликлиника ва оилавий шифокорлик пунктлари **мудирлари масъулиятини кучайтириш;**

кўп тармоқли марказий поликлиникалар, оилавий поликлиникалар, оилавий шифокор пунктлари оилавий шифокорлари ҳамда патронаж ҳамширалари томонидан ўзларига бириктирилган ҳудудларда оилалар ва фуқаролар кесимида **“тиббий хариталар” тўлиқ шакллантирилишини таъминлаш;**

кўп тармоқли марказий поликлиникалар, оилавий поликлиникалар, оилавий шифокор пунктлари шифокорларининг ўзлари бириктирилган ҳудудда 4та хавф гуруҳига кирган фуқаролар билан мунтазам алоқада бўлишлари, уларнинг сони ва рўйхати билан **доимий равишда хабардор бўлиши назоратга олиншини таъминлаш** чоралари кўрилсин.

4. Мазкур кўрсатма хат ижросини назорат қилишни ўз зиммамда қолдираман.

ВАЗИР



М.И.КУРБАНОВ

Киритилди: Ш.Т.Кадириμβетова

